



**ANTIALLERGIK DORILARNI AHAMIYATI VA ULARNING  
TA'SIR MEXANIZMLARINI O'RGANISH**

**Abdubannoyeva M.A.**

*Tibbiy pedagogika va davolash fakulteti, Davolash ishi yo'nalishi,  
210-guruh, ToshDavTU*

*Ilmiy rahbar: PhD, dotsent Mirzaahmedova K.T.*

*Farmakologiya, normal va patologik fiziologiya kafedrası, ToshDavTU*

**Dolzarbliigi:** Hozirgi kunda allergik kasalliklar klinik amaliyotda tez-tez uchrab turadigan patologik holatlar qatoriga kiradi. Ularning ortib borishi asosan atrof-muhit omillarining o'zgarishi, dori vositalaridan noto'g'ri foydalanish hamda immun tizim sezuvchanligining kuchayishi bilan izohlanadi. Allergik reaksiyalar turli klinik ko'rinishda namoyon bo'lib, yengil teri belgilaridan tortib og'ir, hayot uchun xavfli holatlar-anafilaksiya darajasigacha yetishi mumkin. Shu sababli antiallergik dorilarning ta'sir mexanizmlarini o'rganish va ularni to'g'ri qo'llash amaliy tibbiyotda dolzarb masala hisoblanadi.

**Maqsadi:** Antiallergik dorilarning organizmga ta'sirini o'rganish, allergik jarayonlarni kamaytirishdagi o'rnini tahlil qilish hamda ularning klinik amaliyotdagi qo'llanilish xususiyatlarini baholashdan iborat.

**Materiallar va metodlar:** Mazkur tadqiqotda antiallergik dorilar va ularning farmakologik ta'sir mexanizmlariga oid ilmiy ma'lumotlar nazariy tahlil usuli asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida so'nggi yillarda chop etilgan mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, farmakologiya va allergologiya bo'yicha darsliklar hamda klinik tavsiyalar tahlil qilindi. Tahlilda allergik kasalliklarning kelib chiqish mexanizmlari, immun tizimning ortiqcha javob reaksiyasi hamda bu jarayonda ishtirok etuvchi biologik mediatorlar ko'rib chiqildi. Asosiy e'tibor gistamin vositasida rivojlanadigan allergik reaksiyalar va ularni bloklovchi dori vositalariga qaratildi. Antiallergik preparatlar bir nechta asosiy guruhlariga ajratilib o'rganildi. Jumladan, H1-gistamin retseptorlari blokatorlari, glyukokortikoidlar hamda yallig'lanishga qarshi va bronxospazmni kamaytiruvchi dorilarning farmakologik xususiyatlari tahlil qilindi. Har bir guruhning immun javob bosqichlariga ta'siri alohida baholandi. Shuningdek, klinik kuzatuvlar asosida ushbu dorilarning samaradorligi o'rganildi. Bunda simptomlarning kamayishi, bemor umumiy holatining yaxshilanishi hamda og'ir allergik reaksiyalarning oldini olish darajasi hisobga olindi.

**Natijalar:** O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, antiallergik dorilar allergik jarayonlarda asosiy mediator hisoblangan gistamin ta'sirini kamaytiradi. H1-retseptor blokatorlari teri qichishishi, toshma va shish kabi belgilarni yengillashtiradi. Ammo, glyukokortikoidlar yallig'lanish jarayonini susaytirib, immun hujayralar faolligini pasaytiradi, bu esa og'ir allergik holatlarda muhim ahamiyatga ega. Ayrim dorilar bronxial





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

spazmni kamaytirib, nafas olishni yaxshilashi ham kuzatiladi. Umuman olganda, anti allergik preparatlar allergik reaksiyalarni nazorat qilishda samarali vosita hisoblanadi.

**Xulosa:** Antiallergik dorilar allergik kasalliklarni davolashda muhim o'rin egallaydi. Ularning asosiy ta'siri allergik mediatorlarni bloklash va yallig'lanish jarayonlarini susaytirishga qaratilgan. To'g'ri tanlangan va individual yondashuv asosida qo'llangan terapiya allergik reaksiyalarning og'ir kechishini kamaytiradi hamda bemor hayot sifatini yaxshilaydi. Shu bois ushbu dorilarni chuqur o'rganish va klinik amaliyotda to'g'ri qo'llash katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Murphy K., Weaver C. Janeway's Immunobiology. 9th ed. Garland Science, 2017.
2. Abbas A.K., Lichtman A.H., Pillai S. Cellular and Molecular Immunology. 10th ed. Elsevier, 2021.
3. Katzung B.G. Basic & Clinical Pharmacology. 15th ed. McGraw-Hill, 2021.
4. Simons F.E.R., Simons K.J. H1 antihistamines: clinical pharmacology and use in allergic disorders. *Journal of Allergy and Clinical Immunology*, 2011.
5. Johansson S.G.O. et al. Revised nomenclature for allergy. *EAACI Position Paper*, 2004.
6. Lieberman P. et al. Anaphylaxis: guidelines for diagnosis and management. *Journal of Allergy and Clinical Immunology*, 2020.
7. Abbas A.K. Mechanisms of allergy and allergic disease. *New England Journal of Medicine*, 2013.
8. Клиническая аллергология и иммунология. Под ред. Гущина И.С. Москва, 2020.
9. Пыцкий В.И., Адлер Ю.А. Аллергология. Москва, 2019.
10. Toshkent tibbiyot akademiyasi. Klinik allergologiya va immunologiya asoslari. O'quv qo'llanma, 2022.

